

TILNING LEKSIK-SEMANTIK TIZIMI,
QIYOSIY TIPOLOGIK IZLANISHLAR VA
ADABIYOTSHUNOSLIK MUAMMOLARI

MATERIALLAR TO‘PLAMI

XV



**O'ZBEKISTON REESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**TILNING LEKSIK-SEMANTIK TIZIMI,
QIYOSIY TIPOLOGIK IZLANISHLAR VA
ADABIYOTSHUNOSLIK MUAMMOLARI**

MATERIALLAR TO'PLAMI

XV

**"Durdona" nashriyoti
Buxoro – 2025**

UO‘K 81'372(08)+81'25(08)

81.2-3+81.2-7

T 43

Tilning leksik-semantik tizimi, qiyosiy tipologik izlanishlar va adabiyotshunoslik muammolari XV [Matn] : to'plam / M.I. Gadoeva.- Buxoro: Sadridin Salim Buxoriy, 2025.-256 b.

KBK 81.2-3+81.2-7

To'plamda Respublikamiz olimlari, ilmiy tadqiqotchilarning filologik mavzular doasidagi, jumladan, aniq til dorisidagi lingvistik qarashlari; qiyosiy–tipologik izlanishlari; tillarni o'rganish vositalari va millat, milliy madaniyatning amaliy globallashi davrida tildan foydalanish muammolari, qo'llanma, tillarni o'rganish usullari; adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik istiqbollari borasidagi fikr-mulohazalari o'z ifodasini topgan.

To'plam filologik yo'nalishdagi ilmiy izlanuvchilar, katta ilmiy xodim izlanuvchilar, talabalar, magistrlar va talabalarga mo'ljallangan.

Tahrir hay'ati:

Xamidov O.X., (BuxDU professori), **Rasulov T.X.** (BuxDU professori), mas'ul muharrir **Rasulov Z.I.** (BuxDU f.f.d. (DSc), **Gadoyeva M.I.** (BuxDU f.f.d. (DSc), **Haydarov A.** (BuxDU professori), mas'ul kotib **Djumaeva N.Dj.** (BuxDU f.f.f.d. (PhD))

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

M.I.Gadoyeva filologiya fanlari doktori (DSc),

Taqrizchilar:

Davlatova M.X., Buxoro davlat tibbiyot instituti dotsenti, f.f.f.d.(PhD)
Qobilova N.S., BuxDU Ingliz tilshunosligi kafedrası dotsenti, f.f.f.d.(PhD)

To'plamdan o'rin olgan maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligi, mazmuni va savodxonligi uchun mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

BuxDU Ilmiy texnik kengashda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (6-sonli bayonnoma, 25-yanvar, 2025-yil).

ISBN 978-9910-634-64-2

3. Jamolov K. O'zbek Tili Frazologizmlarining Ma'no Tahlili, –T.: 2020, -B.89-102.
4. Kadirov A. O'zbek Maqollari: Tarix va Zamonaviylik. Toshkent, 2021, -P.153-178.
5. Ridout.R.W., Clifford.W. English Proverbs Explained (Piper). – London: – 1983.
6. Smith J. Money and Mind: “The Cognitive Impact of Financial Terminology” – L.: 2018, p. 45-67.

Internet saytlari:

7. <https://statuslar.uz/pul-haqida-maqollar-eng-sara-chirovli-maqollar-to-plami>
8. <https://maqollar.uz/cards/1313>

**“YULDUZLI TUNLAR” ASARI TARJIMALARIDA
QAHRAMON RUHIYATINI YORITISHDA DIALOGNING
O‘RNI**

Radjabova Dildora Raximovna

Buxoro davlat universiteti

**Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrası
katta o‘qituvchisi**

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Yulduzli tunlar” asari asliyati va inglizcha tarjimalarida qahramonlarning ruhiy holatini ochib berishda dialogning ahamiyati va o‘zaro qiyoslanishi haqida fikr yuritilgan

Kalit so‘zlar: asliyat, bilvosita shakl, ruhiyatini ochib berish, qahramonlar o‘rtasidagi muloqotlar

Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida dialoglar qahramonlar ruhiy dunyosini ochib berishda va asar badiiy ta’sirchanligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Dialoglar orqali qahramonlarning ichki hissiyotlari va kechinmalari aks ettiriladi. Masalan, Boburning o‘z yaqinlari bilan bo‘lgan suhbatlarida uning maqsadlari, ichki qarama-qarshiliklari va hayotiy falsafasi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Boburning askarlar, yaqinlari yoki dushmanlari bilan muloqotlarida uning shaxsiyati, mas’uliyati va rahbarlik fazilatlarini chuqurroq ochib beriladi.

Dialoglar qahramonlar orasidagi munosabatlarni aniqlashtiradi. Bobur va uning sodiq yaqinlari yoki dushmanlari bilan muloqotlarida ularning o'zaro bog'liqligi va ziddiyatlari yaqqol seziladi. Boburning yaqinlariga bo'lgan mehribonligi va do'stlariga sodiqligi dialoglarda tabiiy ifodalangan. Siyosiy masalalar muhokamasi chog'ida Bobur va boshqa qahramonlar o'rtasidagi muloqotlar uning davlat boshqaruvidagi qarashlari va kelajak haqidagi tasavvurlarini aks ettiradi. Masalan, Boburning o'z yurtini boy berganidan keyin yaqinlari bilan qilgan suhbatlari uning ichki armonlari va yangi imkoniyatlarga bo'lgan intilishlarini ko'rsatadi.

O'zbek tilida: *Janob Qosimbek, ulug' obidalarini faqat Amir Temurdek sohibqironlargina qurgan emas, – dedi Qutlug' Nigor xonim. – Hirotda Alisherbek Ixlosiya, Unsiya otliq binolar qurmishlar, Bobur mirzoning hokimiyatlari Alisherbekning hokimiyatlaricha emasmi? Axir Alisherbek bir tojdorning musohibi bo'lsalar, Bobur mirzo mustaqil davlatning podshosilar-ku!*[3,83]

Mazkur misol orqali Boburning qalbi tubida yashirin yotgan o'tli istaklarini anglash mumkin. Adib yoshlik chog'laridan janglarda katta g'alabalarga erishishni, she'rlar, dostonlar bitib mashhur bo'lishni, xususan, Navoiydek ulug' shoirlar e'tiboriga tushishni orzu qilgan Boburning ruhiyatini ochib berish maqsadida badiiy psixologizmning bevosita shaklidan foydalanadi, ya'ni Qutlug' Nigor xonim va janob Qosimbek o'rtasidagi dialog aynan mana shu vazifani bajarishga yo'naltiriladi.

Bevosita tarjimada:

– *Mister Kasymbek, amir Timur and Mirza Ulugbek were not the only ones to undertake great constructions. Mir Alisher built the famous trinity in Herat: Ikhlosiya, Khalosiya and Unsiya. And the power of mirza Babur is not lower than the power of Mir Alisher.*

– *Yes, mother, go on!, – Kutlug Nigor-hanum woke Babur's dreams which were hidden deep in his heart.*[6,77]

Bilvosita tarjimada:

– *Master Qasimbeg, Emir Timur and Mirza Ulugh Beg were not the only ones to undertake great construction works. Mir Alisher built the famous trinity in Herat-Ikhlosiya, Khalosiya and Unsiya. And Mirza Babur's power is no less great than that of Mir Alisher, who is merely an advisor to one of the crown-bearers.*

That's right, Mother! That's right! Qutlug Nigar Khanim's words once again stirred the dreams Babur cherished deep within his soul [4,109]

Qutlug Nigor xonimning Qosimbekka aytgan ushbu gaplari Boburning necha yillik ko'nglida tugib yurgan orzularini yuzaga chiqardi. Asliyatda berilmagan bo'lsa-da, har ikkala tarjimada Boburning quvonib ketganini, bolaligidan ham shoir, ham shoh, ham yengilmas sarkarda sifatida tanilish istagining kuchliligini "Yes, mother, go on!", "That's right, Mother! That's right!" kabi jumlar bilan ifodalanganini kuzatish mumkin. Manba tilda badiiy psixologizmning bevosita shakli, ya'ni Boburning o'y xayolidan o'tgan kechinmalari mutarjim tomonidan bilvosita tarzda, ya'ni tarjimon aralashuvi orqali ta'kid ma'nosi ifodalanadi. Tahlillarimiz natijasini aniqroq ko'rsatish maqsadida misollarni jadvalga tushuramiz:

№	O'zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida
1.	-	Так, матушка, так!	Yes, mother, go on!
2.			That's right, Mother! That's right!

O'zbek tilida:

- *Mavlono, novvoylar ko'chib ketganmilar?*

- *Mirzo hazratlari uch oydirki, rastaga non chiqmaydi. Chunki un yo'q.*

Qamalda ko'p novvoylar ochdan o'lib ketdi. Odamlar holdan toygan. Tomga chiqib qor kurashga ham madorlari yo'q. Bobur bunga sababchi bo'lgan odamdek o'ng'aysizlanib Qosimbekka qaradi. [3,109]

Bevosita tarjimada:

- *Mavlyana, bakers moved to another city, didn't they?*

Djavhari sighed:

- *Oh, master, it's been three months that no bread is taken out to the bazaar. There is no flour left for that. During the siege many bakers died of hunger. People grew weak. They are not able to climb roofs and wipe snow away. Babur felt as if Djavhari blamed him of those misfortunes. [6,100]*

Bilvosita tarjimada:

"Maulana, have all the bakers moved to another town?" he asked, "Is that it?"

"Ah, my lord, nobody has brought flatbreads to the market for three months now. There is no flour. Most of the bakers starved to death during the siege. The people are exhausted. They cannot go up onto the rooves and clear snow."[4,139]

S.Mirzayev tarifi ko'ra romanda Bobur yashagan murakkab davr hayoti, xilma-xil voqea-hodisalar, turfa qismatlar jonli va tabiiy aks ettirilgan. Ushbu parchada badiiy psixologizmning ham dinamik, ham tipologik prinsipidan foydalanilgan. Tevarak atrofda hech kimsaning yo'qligi, qor kuralmagani Boburni xavotirga solgan holatida badiiy psixologizmning tipologik shakli, Javhariy va Boburning dialogi, Boburning Qosimbekka gunohkorlarcha nigohi kabilarda dinamik shakli kuzatiladi.

Asarning bilvosita tarjimasidagi *this honorable man* jumlasida o'sha paytlarda sahhoflik kasbi ulug' kasb ekanligidan darak berib, Bobur uning ham tang ahvolda qolganidan juda kuyunadi. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, muqovasozlik (sahhoflik) qadimiy soha bo'lib, mo'g'ullar istilosidan keyin Temuriylar hukmronligi davrida rivojlangan, muqovani bezash usuli yanada takomillashib, XV-XVI asrlarda yuksak darajaga ko'tarilgan.

Ko'rinib turibdiki, sahhoflik san'ati rivojlangan bo'lsa-da, davr siyosati tufayli ular ham nochor. Ushbu misol orqali muallif va qahramon psixologiyasini anglash mushkul emas. Yozuvchi tarixiy manbalarga asoslanib, xalq turmush tarzi xususida kuyunib yozadi va o'zining ana shu qarashlarini bosh qahramon Bobur obrazi orqali ifodalaydi. Boburning toj-u-taxt va kitoblarga sho'ng'ib, oddiy xalq muammolarini unutib qo'ygani eksplitsit tasvirlanmagan bo'lsa-da, Boburning o'z-o'zini koyishi kitobxon ong oqimi ostida uning jafokor, g'amxo'r, adolatparvar shoh ekani anglashiladi.

Tarjimalarda Bobur va boshqa qahramonlarning ijtimoiy maqomi, madaniyati va ma'naviy dunyosini aks ettiruvchi aniq, jonli va badiiy tildan foydalangan. Dialoglar ko'pincha Boburning ichki monologi bilan uyg'unlashadi. U dialog orqali o'z fikrlarini bayon etar ekan, keyinchalik o'zi bilan yakka qolganida bu fikrlarni chuqurroq tahlil qiladi. Bu uslub qahramonning ruhiy holatini yanada ko'proq anglashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Барабаш О.В. Психологизм как конструктивный компонент поэтики романа Л. Н. Толстого «Анна Каренина»: дисс.... канд. филол. Наук. – М.: МГУ, 2008. – 208 с.
2. Лихачев Д.С. Внутренний мир художественного произведения // Вопросы литературы. – 1968. – № 8. – С.74 - 87.
3. Қодиров П. Юлдузли тунлар; Бобур: Роман. – Т.:Ўзбекистон, 1990. – 462 б
4. С.Ermakova. Babur Starry Nights. – Karimov Foundation, 2021. – P.565
5. Jaaskelainen R. Tapping the Process: An Explorative Study of the Cognitive and Affective Factors Involved in Translating. – Joensuu: University of Joensuu, 1999. – 268 p.
6. Tukhtasinov, U.R. Yoldoshev, A.A. Khamidov. Starry nights: novel / Bobur. – Samarkand: SamSIFL, 2018. –P.444

**MAQOLLARNING JAMIYAT MUNOSABATLARIDA
AKSIOLINGVISTIK TAHLILI**

Abduqodirova Yulduz Safaraliyevna

Navoiy pedagogika universiteti

Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog' ishtirma tilshunoslik

va tarjimashunoslik ixtisosligi tayanch doktoranti

Anotatsiya: Ushbu maqola frazeologik birliklarning, xususan maqollarning jamiyatda insonlar o'rtasidagi munosabatlarda tutgan beqiyos o'rnini aksiologik jihatdan tadqiq qiladi. Muallif aksiolingvistikaning qisman maqsadlari va vazifalarini yoritgan holda, maqollarning lingvistik ta'rifi, qadr-qiymati va evolutsiyasini metodlar yordamida tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: aksiologema, frazeologik birliklar, aksiolingvistik tahlil, lingvistik paradigma, antroposentrik paradigma, kognitiv yondashuv.

Jahon tilshunosligida tilshunoslikni o'rganish va unga tarmoqlararo integrativ yondashuv inson omili, qadriyat nuqtai nazaridan qiymati amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Antropotsentrik paradigmalar, inson fikrlashi va rivojlanishiga doir lingvistik qarashlar, milliy

Haydarov Anvar Askarovich, Tosheva Farangiz Bobomurodovna. Representation of the category of modality in the motives of English and Uzbek fairytale	58
N.D.Djumaeva, S.Sh.Gafurova. The influence of social factors on communication	61
Санам Остонова Нематовна. Межрелигиозной толерантности в Узбекистане их различие в современном мире	65
N.D.Djumaeva, Afifa Abdukholikova. Linguistic units in speech	69
Navruzova Nigina Khamidovna. Connotation: exploring the power of word associations	71
Kobilova Nargisa Sulaymonovna, Azimjonova Elena Tulkunovna. Communicative excellence: leveraging multimodality in teaching listening and speaking	75
Sattorova Shahlo Shavkat qizi. Modallik kategoriyasining zamonaviy tilshunoslikdagi ahamiyati	80
Ibragimova Gulshan Raimovna. The interpretation of tree imagery in english folklore literature	83
Isamova Dilfuza Rakhmatovna, Haydarov Anvar Askarovich. The usage of synonymous words in Erkin Vohidov`s poetry.....	87
N.D.Djumaeva, N.Baxshullayeva. Conceptual frameworks in linguistics: types, relevant fields, and influential linguists.....	90
Vakhidova Fatima Saidovna, Sadullayrva Umida Shuxrat qizi. Toponimikaning tilshunoslik, tarixshunoslik, arxeologiya va geografiya fanlari bilan bog`liqligi	93
Vaxidova Fatima Saidovna, Faxriyeva Dilorom Otamurodovna. Ziyorat turizmi va uning ahamiyati.....	97
Barotova Saodat Uktamovna. THE crucial role of using artificial intelligence in education	99
N.N.Khayrullayeva. Persian classical literature: a look at the translated essentials	104
Radjabova Dildora Raximovna. “Humoyun va Akbar” asari inglizcha tarjimasida ichki monolog o`rni.....	107
Subxonova Nozigul Maqsud qizi. Realism in daniel defoe`s Robinson Crusoe: a blend of truth and literary craft.....	110
Abdukodirova Yulduz Safaraliyevna. Ingliz va o`zbek tillarida pul mazmunli maqollarning inson ruhiyatiga ta`siri.....	113
Radjabova Dildora Raximovna. “Yulduzli tunlar” asari tarjimalarida qahramon ruhiyatini yoritishda dialogning o`rni.....	117

Abduqodirova Yulduz Safaraliyevna. Maqollarning jamiyat munosabatlarida aksiolingvistik tahlili	121
Nazarova Navbahor Ahrorovna. Ingliz va o'zbek tillarida antroponimlarning leksik-semantik tahlili	125
Saparova Mohigul Ramazonovna, Maftuna Ibodilloeva. Dealing with factors influencing the listening process	129
Артыков Азаматжон Холмуродович. Лингвистический эллипсис в английском языке: анализ типов и функций эллиптических предложений	132
Shukurova Madina Askarovna. Lexical transformations: an exploration of changes and adaptations in language	138
Usmonova Zarina Habibovna. The types of translation and their features in modern science fiction	141
Ruziyeva Nafisa Zarifovna. An in-depth analysis of euphemisms and the language of politics	145
Kodirova Holida Khayriddin kizi. Linguocultural features of translating false speech acts	147
Bobojonova Nargiza Jumaniyozovna. Linguocognitive analysis of the concept of vocative.....	151
Xayrullayeva Gulasal Farhodovna. Konseptual metafora dunyoni anglashdagi roli	155
Saidov X.Sh., Najmiyev M.M. Abbreviaturalar va ularning tilga ta'siri.....	158
Ruziyeva Nafisa Zarifovna. An in-depth analysis of euphemisms and the language of politics	163
Umurova Xushvaxt Hakimovna, Qahhorova Guli. Conducting foreign language classes through modern teaching methods	167
Yuldasheva Feruza Erkinovna. Understanding diverse cultures through politeness	170
Akhmedova Sarvinoz Hikmatovna, Islomova Bahora. The role of online tools in foreign language teaching	174
Kobilova Aziza Baxriddinovna, Rakhmatova Aziza. Brief overview of types of toponyms	177
Jumayeva Ozoda Ilhomjonovna. Zamonaviy tilshunoslikda lingvomadaniy kodlarning ahamiyati	180
Aziza Yunusova. Diskurs: kontseptsiya evolyutsiyasi va uning tilshunoslikdagi o'рни.....	183

Tursunov Mirzo Makhmudovich, Mirzayeva Mohinur Zokir qizi. Depiction of the main characters in Uzbek and English classic movies	187
Tursunov Mirzo Mahmudovich, Cho'lliyeva Malika Xolmurod qizi. Milliy obrazlarning OAV diskursida namoyon etilishi	190
Naimova Aziza Muxammadovna. Types of historical inversion and its peculiar features.	194
Ubaydullayeva Muattar O'rinbekovna. Turli tillarda frazeologik lakunalar tahlili va qo'llanilish usullari	198
Akramov Izzatulla Ikromovich. Aphorism as a complete statement: organization systems with semantic compartments.....	202
Elmanova Mastura Toshnazarovna, Ismatova Shahinabonu Islomovna. The Tragic Depths of Shakespeare's "Macbeth": Themes, Language, and Legacy	209
Sharipov Ma'mur Mansurovich. The Role of Servants in 19th Century English Literature.	213
Khayrullayeva Nodira Nematilloevna. The description of the hero's psyche in novels of the 20th century	216
Shamamedova Zinnat Xayrulloevna. Jinoiy syujet psixoanalizi....	219
Sadikov Erkin Tursunovich. Kommunikativ kompetensiyaning nutq aktlarini o'rgatishdagi ahamiyati	224
Raxmonqulova Yoqutxon To'xtasinovna. Somatik leksikaning xususiyatlari	228
Mukhammadieva Nigina Makhmudovna. Techniques for enhancing emotiveness in language and speech.....	234
Qodirova Aziza. Communicative approach in language teaching and learning.....	238
Axmedov Jahongirbek G'anijon o'g'li. Cultural influence on foreign language acquisition.....	245
Namozova Kamola Bobir qizi. Wedding ceremonies in Uzbek culture and the lexicon related to national rituals	248

**TILNING LEKSIK-SEMANTIK TIZIMI, QIYOSIY
TIPOLOGIK IZLANISHLAR VA ADABIYOTSHUNOSLIK
MUAMMOLARI**

MATERIALLAR TO'PLAMI

XV

<i>Muharrir:</i>	<i>A. Qalandarov</i>
<i>Texnik muharrir:</i>	<i>G. Samiyeva</i>
<i>Musahhih:</i>	<i>Sh. Qahhorov</i>
<i>Sahifalovchi:</i>	<i>M. Bafoyeva</i>

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 11.02.2025. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog'ozi. Bosma tobog'i 16,0. Adadi 100. Buyurtma №86

“Sadridдин Salim Buxoriy” MCHJ
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadridдин Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45